
OLTIARIQDA MA'NAVIYAT FESTIVALLARI O'TKAZILMOQDA

Shu kundarda viloyatimiz yana bir katta ma'naviy-ma'rifiy tadbirga mezbonlik qilmoqda. Barcha mahalla fuqarolar yig'inida "Yangi O'zbekiston – inson qadri ulug'langan yurt" shiori ostida kontsert dasturlari, teatrlashtirilgan tomoshalar, ijodiy uchrashuvlar, eng sara kinofilmlar namoyishi bo'lib o'tmoqda. Jumladan, bunday tadbirlar tuanimizda ham tashkil etilmoqda.



Farg'onaliklar azaldan madaniyat va san'atni qadrlashadi. Ayniqsa, elimiz suygan san'atkorlar va ijodkorlar bilan gurunglarni, uchrashuvlarni sog'ingan. Shu bois ham har bir hududda bu tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish chora-tadbirlari belgilandi.

Uchrashuvlarda aholiga yurtimizda Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlarni aniq hayotiy misollar orqali sodda va tushunarli shaklda yetkazishga e'tibor qaratilmoqda.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida "Kitob karvoni" tashkil etilib, mingdan ziyod kitoblar tuhfa qilinadi. "Kinokarvon" loyihasi doirasida mahallalarda kino san'atimizning 100 ta eng sara namunasi va so'nggi yillarda ishlab chiqarilgan filmlar namoyish etilib, kinoijodkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-01 07:49:13